

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,

O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

XORIJLIK LARGA O'ZBEK TILINI MAQSADLI O'QITISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA MUQOBIL YECHIMLAR

Mavluda Pardayeva¹

Ilmiy rahbar: Nargiza Musulmanova²

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilini xorijliklarga maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan bir qancha muammolar haqida fikr yuritilgan bo'lib, o'z navbatida har bir muammoga to'xtalganda ma'lum darajadagi yechimlar taklif qilingan. Bu kabi muammolar sifatida izohlangan o'zbek tilidagi so'zlar talaffuzi, tilidagi shevalarni xorijliklarga o'rgatish, til mutaxassislari tomonidan yaratilgan audio va video materiallarning yetishmasligi, o'zbek tilini mustaqil o'rganuvchilar uchun to'rt ko'nikmaning har biriga alohida-alohida adabiyotlar yaratish zaruriyati kabi muammolar ba'zi misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *O'zbek tili, maqsadli o'qitish, lingvistik muammolar, shevalar, talaffuz, muammoli matnlar.*

Annotation. This article discusses a number of problems that arise in the purposeful teaching of the Uzbek language to foreigners, and in turn, solutions of a certain level are proposed for each problem. Pronunciation of words in the Uzbek language, teaching dialects of the Uzbek language to foreigners, lack of audio and video materials created by language experts, and the need for each of the four skills for independent learners of the Uzbek language are explained as such problems. problems such as the need to create separate literature are highlighted on the basis of some examples.

Key words: *Uzbek language, targeted teaching, linguistic problems, dialects, pronunciation, problematic texts*

O'zbek tili nihoyatda boy til, uning turkiy tillar oilasiga kirgan holda qay darajada boy ekanligi Alisher Navoiy hazratlari davridan o'rganila boshlagan va hozirgi kunga qadar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan samarali izlanishlar olib borilmoqda. Davrlar o'tishi bilan o'zbek tiliga arab va fors tili so'zlari qo'shilishi natijasida o'zbek tili asliyatini boyitgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu jarayon rus va ingliz tillaridan so'z o'zlashtirilish evaziga davom etmoqda. Tillarning bunday faol integratsiyasi pallasida o'zbek tili sofligini saqlab qolish bilan bir qatorda uni xorijliklarga o'rgatish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Pardayeva Mavluda Chori qizi – *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs magistranti*

² Musulmanova Nargiza – *ToshDO'TAU O'zga tilli guruhlarida, o'zbek tili ta'limi kafedrasi dotsenti, f.f.n.*
Iqtibos uchun: *Pardayeva, M.Ch., Musulmanova, N. (2024) Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 102-106 b. DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/FNCL6934*

Bugungi kunda insonlar o'zbekchada muqobili bo'lsa ham og'zaki lug'atga yangi kirib kelgan chet tili so'zlaridan foydalanishi natijada o'zbek tilini o'rganayotgan xorijliklar til o'rganish jarayonida aslida qaysi so'z o'zbekcha ekanligini bilolmay qiynalishadi. Ayrim o'rganuvchilar o'zbek tilini biladiganlardan aslida bu kabi chet tilidan og'zaki nutqqa kirib qolgan so'zlar o'zbekcha emasligini so'rab bilsalar, ayrim o'zbek tilini o'rganuvchi xorijliklar ko'cha-ko'yda mahalliy xalq og'zidan eshitgan, o'zbekcha bo'lmagan "brat", "karochochi", "dux..." kabi so'zlar bilan o'zlarining o'zbek tili lug'atlarini boyitishga harakat qiladilar. Bu esa juda achinarli holat bo'lib, aslida o'zbekcha bo'lmagan so'zlar o'zbek tili tushunchasi ostida xorijliklar miyasidan joy oladi. Bundan tashqari og'zaki va yozma materiallar kamligi sababli o'zbek tilini o'rganuvchi xorijliklarning aksariyati har xil ijtimoiy tarmoqlardagi oddiy xalq tomonidan olingan har xil video lavhalar orqali o'zbek tilini o'rganishga yoki lug'at boyligini oshirishga harakat qilish holatlari ham ko'p uchraydi. Bu kabi video lavhalarni asosan til mutaxassislari emas balki har xil yoshdagi va bilim darajasi past, yoki so'zlashish madaniyati yuqori bo'lmagan yoshlar tayyorlashadi. Buning oqibatida o'zbek tilini o'rganuvchilar oldida bu til o'zining jozibasini yo'qotadi. Bunga yechim, o'zbek tili mutaxassislari tomonidan maxsus til o'rgatish uchun moslangan va kundalik hayot tarzi yoritib beriladigan qiziqarli qisqa, maqsadli videolar tayyorlashdir.

Xorijliklar duch keladigan boshqa bir to'siq bu shevalar masalasidir. Shu o'rinda "Umuman o'zbek tilini o'rganayotgan xorijliklarga shevalar o'rgatilishi kerakmi?", degan savol tug'iladi. Har bir 12 viloyatning o'z shevasi mavjud bo'lib, bu shevada gaplashuvchi bir viloyat vakillari boshqa viloyatga borganlarida muloqot jarayonida bir-birlarini tushunishda ayrim so'zlarni inobatga olmaganida unchalik muammoga duch kelishmaydi. Shuning uchun ham mahalliy aholi muloqot uchun maxsus shevalarni o'rganishga muhtoj emas. Shevalarni o'rganish faqat til mutaxassislari gagina xosdir. Shunday ekan o'zbek tilini o'rganayotgan xorijliklarga ham shevalarni maxsus o'rgatish, birinchidan, ular uchun juda murakkablikni keltirib chiqaradi, ikkinchidan, ularni chalg'itib ko'p vaqt yo'qotishlariga sababchi bo'ladi. Barcha til o'rganuvchilar uchun adabiy til me'yor hisoblanadi va ular adabiy til orqali hamma viloyat vakillari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shunday ekan xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishda adabiy tilga suyanish maqsadga muvofiq.

Mamlakatga yo'naltirilgan tilshunoslikning vazifalari o'rganilayotgan til mamlakati yoki mamlakatlariga xos bo'lgan hodisalarning chet tilidagi aksini aniqlash, tizimlashtirish va qarama-qarshi tilshunoslik nuqtai nazaridan talqin qilishdan iborat [1,311]. Tilshunoslikning ushbu vazifalarini bajarishda yuzaga keladigan muammolar talaygina bo'lib, ulardan yana biri bu talaffuz bilan bog'liq muammolar hisoblanadi. Chunki, qarama-qarshi tilshunoslik nuqtai nazaridan talqin qilingan barcha so'zlar ma'lum talaffuz me'yorlariga ega. O'zbek tilini o'qitishda aynan talaffuz me'yorlari bilan bog'liq, talaffuzni to'g'rilashga qaratilgan, darsliklar, audio va video materiallar juda kam. Shu sababli, o'zbek

tilini o'rganayotgan xorijliklardan so'rovnoma o'tkazilganda deyarli barchasida talaffuz bilan bog'liq muammolar mavjudligi aniqlangan.

To'g'ri, faqat o'zbek tili emas, istalgan tilni o'rganishda o'rganuvchida talaygina muammolar paydo bo'ladi, biroq gap shundaki, o'zbek tilini o'rganishga xohishi kuchli xorijliklar ko'p bo'lgani bilan o'zbek tilini o'rgatishga mo'ljallangan amaliy ishlar salmog'i juda kam. Birinchi navbatda o'zbek tilini bilish darajasi hali darajalarga ajratilmagan. O'rganuvchilar qancha so'z bilsa yoki qay darajada muloqot qila olsa o'zlari ko'zlagan darajaga yetishishini bilisha olmaydi. Dunyodagi ko'pgina tillarda til bilish darajasi aniq belgilab qo'yilgan. Misol uchun, ingliz tilida A1, A2, B1, B2, C1, C2 kabi darajalansa, Xitoy tilida HSK4, HSK5, HSK6 kabi darajalanadi va hokazo. Ikkinchidan, aynan xorijliklarga mo'ljallangan o'zbek tili darajasini belgilab beradigan topshiriq va testlar ishlab chiqilmagan. Hozirgi amaldagi o'zbek tili milliy sertifikat tizimi faqat ona tili o'qituvchilari va universitetga o'qishga topshirmoqchi bo'lgan abituriyentlarga mo'ljallangan. Chunki, savollarning murakkablik darajasi yuqori bo'lib, asosan grammatikaga yo'naltirilgan hamda adabiyotga doir savollar ham qo'shilgan. Xorijliklarga mo'ljallangan sof lingvistik kompetensiyani aniqlab beradigan test tizimi ishlab chiqish ehtiyoji mavjud. Bu kabi lug'at tuzish, o'zbek tilini darajalash va maxsus test tizimini ishlab chiqish anchagina vaqt va mablag' talab qiladi. Shu sababli, o'zbek tilini dunyo sahnasiga olib chiqish uchun hukumat ham tashabbus ko'rsatishi, ma'lum miqdordagi til grantlarini ajratishi va o'zbek tilini o'qitish bo'yicha loyihalarni qo'llab-quvvatlashi lozim.

O'zbek tilini chet tili sifatida o'rgatish juda qiyin vazifadir, ayniqsa, o'zbek tilini o'rgatish cheklangan maqsadlarga xizmat qiladigan muhitda amalga oshirilsa.

Mukattash (1983) ingliz tilini o'qitishda duch keladigan muammolarni ikkiga ajratdi: birinchi, talaffuz, morfologiya, sintaksis va imloga oid ko'pchilik noaniqliklar; ikkinchi, ko'pchilik o'quvchilar ingliz tilidan foydalanishda o'z fikrlarini bildirishda muammolarga duch kelishadi. Talaffuz, urg'u va intonatsiya bilan bog'liq o'ziga xos muammo talabalar uchun muammoga aylanadi. Natijada, ushbu lingvistik muammolar barcha til ko'nikmalarida uchraydi, bu esa talabalarni maqsadli tilni mashq qilishda sustlashtiradi [2,181]. Sanab o'tilgan ushbu holatlar o'zbek tilini chet tili sifatida o'qitishda ham vujudga keladi va natijada xorijliklarning o'zbek tilini o'rganishga qiziqishlari susaya boshlashi mumkin. Bunday vaziyatda o'zbek tili o'qituvchilari o'zlarining pedagogik mahorati va tajribasidan foydalangan holda til o'rganuvchilarni maqsadlari oxirigacha borishga undashadi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan muammolar o'z yechimini topguniga qadar o'zbek tilini o'qitishda barcha mas'uliyatni o'qituvchilar o'z zimmasiga olishga majbur. Ya'ni sanalgan muammolar yechimini topguniga qadar o'zbek tili o'qituvchilari o'z yechimini ishlab chiqarishlari va darslarida yechimni amaliy isbotlashlari lozim.

Bizning fikrimizcha, chet tilini o'rgatishda muammoni hal qilish quyidagilarni anglatadi:

- yangi grammatika va lug'atni taqdim etish jarayonida tayyor javoblar berishdan qochish, talabalarni grammatik qoidalarni shakllantirishga jalb qilish va keltirilgan misollardan lug'at ma'nolarini aniqlash;

- talabalarining muloqot jarayonida yuzaga keladigan til muammolarini mustaqil ravishda yengish qobiliyati;

- chet tilida muloqot qilish orqali noprofessional, kundalik hayotiy muammolarni muhokama qilish / hal qilish;

- muammoli matnlarni muhokama qilish;

- chet tilida muloqot qilish orqali kasbiy muammolarni muhokama qilish [3].

O'zbek tilini o'rganayotgan xorijliklarning o'zbek tilini o'rganishdagi muammolarini mustaqil yengish qobiliyatini rivojlantirish uchun ularning lingvistik muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradigan maxsus qo'llanmalar ishlab chiqish ham kerak. Ulardagi til muammosini yechish, avvalo, o'qituvchi rahbarligida, har bir bosqichning tushuntirishlari bilan amalga oshirilishi kerak. Shu paytgacha yaratilgan adabiyotlarning aksariyat qismi har to'rtala ko'nikma: o'qib tushunish, yozish, tinglab tushunish, va gapirishni o'z ichiga jamlagan. Bunday adabiyotlar, albatta, til o'rganuvchilar uchun juda foydali. Biroq til o'rganuvchilarning barchasida ham ushbu 4 ko'nikmani bir xil darajada shakllantirish qiyin. Ba'zi o'rganuvchilar so'zlash ko'nikmasida ko'proq muammoga duch kelsa, ba'zilarida tinglab tushunish bilan bog'liq muammolar ko'proq bo'lishi mumkin. Shu, sababli, har bir ko'nikmaning rivojlanishi uchun har biriga alohida-alohida qo'llanmalar va adabiyotlar yaratish, o'zbek tilini mustaqil o'rganuvchilar imkoniyatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'zbek tilini o'rganishda va o'rgatishda yuzaga keladigan, yuqoridagi sanab o'tilgan bu kabi muammolar va taklif qilingan yechimlar faqat og'izda qolib ketmasdan, amaliy isbotini topishi kerak. Shundagina o'zbek tilini dunyo bo'ylab yoyishda ijobiy siljishga erisha olamiz.

ADABIYOT:

Gorgiladze G. (2005). Problem Approach to Teaching a Foreign Language in the Process of Professional Education (EFL). Unpublished doctoral dissertation. Ilia Chavchavadze Language and Culture University. -Tbilisi (In Georgian).

Musulmanova N.R. Integration of language and education in Uzbekistan. INTERNATIONAL CONFERENCE: ACTUAL PROBLEMS AND SOLUTIONS OF MODERN PHILOLOGY Published by Research Support Center Section 4: Integration of language and education <https://doi.org/10.47100/.v1i2.300> 2021.01.02.

- Zubaydova N.* "The role of country studies in teaching English". International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. 21.04.2020. 311-b.
- Расулова, Н. А.* Challenges and Solutions in English Language Teaching to Students / Н. А. Расулова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 11 (301). — С. 179-181. — URL: <https://moluch.ru/archive/301/67380/> (дата обращения: 23.03.2024).
- Кадирова Х.Б.* ЭВФЕМИЧЕСКИЙ И ДИСФЕМИЧЕСКИЙ СМЫСЛ В СТРУКТУРНО-ПРАГМАТИЧЕСКОМ АНАЛИЗЕ // Мировая наука. 2021. №4 (49). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/evfemicheskiy-i-disfemicheskiy-smysl-v-strukturno-pragmaticheskom-analize>

MUNDARIJA:

1	Muhammedova S. Shirinova Y. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	Iskandarova G.T. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	Musulmanova N. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	Isayeva Sh. Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	Do'smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	Turakulova O.A. O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	Məmmədov X. Kadirova X. X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	Elova D.Q. O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	Abdulkhaimova O. O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	Xo'jayev N. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	Aytniyazova N. O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	Khidoyatova D.A. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	Davronov A.S. O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	Bazarova D.B. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	Yo'ldosheva Y.A. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	Beysenova A. Kadirova X. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	Pardayeva M.Ch. Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	Shodmanov T.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	Abduqodirova N. Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112